



FORTEPIANO IJROCHILIGIDA BADIY TALQIN (INTERPRETATSIYA) NING O'RNI VA AHAMIYATI

Ne'matova Muxtabar Nodirjon qizi

Nizomiy nomidagi O`.M.P.U “Musiq
ta’limi va san’at” fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Fortepiano ijrochiligida badiiy talqin (interpretatsiya) tushunchasi, uning shakllanish omillari, ijrochining shaxsiy yondashuvi va musiqiy asrning badiiy mazmunini ochib berishdagi roli yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Fortepiano ijrochiligi, interpretatsiya, bastakor, estetika

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ (ИНТЕРПРЕТАЦИИ) В ФОРТЕПИАННОМ ИСПОЛНЕНИИ

Неъматова Мухтабар Нодирджон кызы

Студентка 1 курса магистратуры

факультета «Музыкальное

образование и искусство»

Государственного музыкального университета имени Низами

Аннотация: Рассматривается понятие художественной интерпретации в фортепианном исполнительстве, факторы её формирования, личностный подход исполнителя и его роль в раскрытии художественного содержания музыкальной эпохи.

Ключевые слова: Фортепианное исполнение, интерпретация, композитор, эстетика

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF ARTISTIC INTERPRETATION IN PIANO PERFORMANCE



Ne'matova Mukhtabar Nodirjon qizi
1st year master's student of the Faculty
of "Music Education and Art" of the Nizami State University

Annotation: The concept of artistic interpretation in piano performance, its formation factors, the personal approach of the performer and its role in revealing the artistic content of the musical era are highlighted.

Keywords: Piano performance, interpretation, composer, aesthetics.

Fortepiano ijrochiligi san'atida badiiy talqin yetakchi o'rinni egallaydi. Har bir asar bastakor ijodiga tayanadi, ammo ayni paytda ijrochining ichki dunyosi, uslubi va estetik qarashlari orqali qayta yaratiladi. Shuning uchun interpretatsiya ijodiy jarayon sifatida ijrochilik san'atining markazida turadi.

Badiiy talqinning mazmuni shundaki, badiiy talqin - bu ijrochining asarni tushunishi, uning mazmun mohiyatini hissiy va texnik vositalar orqali ifodalanishi, bastakor g'oyasiga mos yondashuvni topishi, shaxsiy ijodiy pozitsiyasini namoyon qilishi. Talqin jarayonida ijrochi musiqaning ritm, dinamika, frazalash, tembr, artekulyatsiya, pedalizatsiya kabi komponentlar orqali mazmunini ochib beradi.

Ijrochida badiiy talqin shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir

- 1) Bastakor uslubi va davr estetikasi bu barakko, klassitizm, romantizm va zamonaviy musiqa uslublari talqin uslubiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan barakko asarlarida- aniqlik, barqaror ritm, kam pedal. Romantizmda erkinlik, hissiylik va keng dinamika.
- 2) Ijro texnikasi - yuqori darajadagi texnik mahorat talqining sifatini belgilaydi. Texnika bu talqinni chiroyli ifodalash imkonini beruvchi asosiy vosita.
- 3) Shaxsiy estetik qarashlar. Har bir ijrochi o'z dunyoqarashiga ko'ra musiqaga ma'no beradi. Shu bois bir asarni turli ijrochilar talqinida butunlay boshqa ko'rinishlarini ko'rish mumkin.



4) Psixologik holat va sahna madaniyati. Ijro paytidagi emotsional holat, sahnadagi erkinlik, o'zini tutish badiiy talqinga be'vosita ta'sir ko'rsatadi.

Fortepiano ijrochiligida badiiy talqinning ahamiyati shundaki:

- *asarning mazmuni to'liq va jonli yetkaziladi,
- *ijrochi va tinglovchi o'rtasidagi hissiy aloqani shakllantiradi
- *ijrochining individualligi va ijodkor sifatidagi o'rni namoyon bo'ladi,
- *musiqa asarining turli avlodlarga qayta talqin qilinib, yetib borishini ta'minlaydi,
- *Fortepiano ijrochiligi san'atini rivojlantiradi.

Fortepiano ijrochiligida badiiy talqin asarning nafaqat texnik, balki ruhiy tomonini ochib beruvchi eng muhim omildir. Muvaqqiyatli interpretatsiya ijrochi texnikasining mukammalligi, musiqiy tafakkurning kengligi, estetik didi, psixologik tayyorgarligi va bastakor g'oyasining to'g'ri aniqlash jarayonlari bilan belgilanadi. Shuning uchun har bir fortepiano ijrochisi talqin san'atini chuqur o'rganishi, ijodiy yondashuvni shakllantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navro'zova N. "Fortepiano ijrochiligida badiiy tafakkurni shakllantirishning metodologik asoslari".
2. Usmonov A. Fortepiano sinf metodikasi. Toshkent.
3. Rahmatov S. Musiqa ijrochiligi asoslari. Toshkent
4. Shenderovich E.M. konsertmeysterlar sinfida: o'qituvchining mulohazalari M.:Musiqa,1996